ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№2(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 454 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E’zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg‘izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari ... 22
Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna

O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida ... 26
Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna

Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil ... 29
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish ... 33
Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish ... 37
Nusharov Bobir Bolbekovich

Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя ... 41
Олимова Азиза Кахрамоновна

"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari ... 47
Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi

Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari ... 50
Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich

Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari ... 54
Fayziyeva Nozima Oybek qizi

Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi ... 59
Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli ... 64
Botirova Lobar Kamolovna

O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ... 69
Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlarga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish ... 73
Ergasheva Nigora Erkinovna

Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects ... 76
Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna

Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari ... 81
Rustemov Abseit Trijan o'g'li

Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni ... 85
Baxramova O'ramol Uralovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati ... 88
Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna

Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari ... 92
Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich

Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli ... 96
Ergasheva Mehriyona

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari ... 100
Jummayeva Sayyora Shokir qizi

The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies ............. 104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi

Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash:
tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili ........................................................................ 109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna

Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi ..................... 112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi

Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations ........................................................ 116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .................... 123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi

Qandli diabet bilan og'rigan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi............................................ 126
Shermatova Yakut Sabirovna

O'smirlar o'rtasida kiberbulling ........................................................................................................ 129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish ................................ 132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna

Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.................................................................... 135
Turdiyeva Zilola Jalilovna

Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni ........................................... 138
Xalikova Umida Mirovna

Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni ..................................................... 143
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi

Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash ......................................................................... 148
Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi

О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования........................................ 153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна

Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari .................. 156
Kushakova Gulnora Egamkulovna

Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini
aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish ........................................................................... 160
Normurodova Gulnora Ikromovna

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari .......................... 164
Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi

Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri............................................... 168
Jurakulova Dildora Ziyadullayevna

Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari .......................... 172
Kazakova Saxiba Abdurayimovna

Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari................................ 178
Ziyayev Adxamjon

Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini .................................................................. 182
Jo'rayeva Nozima Nozim qizi

Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi ........... 185
Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari ................ 189
Teshaboyeva Feruza Raximovna

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri............................ 192
Ashirova Sojida Baxromovna

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini
differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari ......................................................... 196
Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ...... 200
Jabborova Salomat Abdijalilovna

Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni...... 204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish ...... 208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi

Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi ...... 213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna

Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari ...... 217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna

Tilning obrazli kuchi: perifrazalar turlari va xususiyatlari ...... 221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari...... 224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi

Mentorlik faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish .... 229
Zikriyayev Zokir Mamirovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish ...... 232
Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, Sunnatullayeva Amina

Professional kompetentlilik va uning shaxs psixologik xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi ...... 235
Artikova Nodira Shavkat qizi

Talaba qizlarni jismoniy faolligini rivojlantirish tasnifi va ularni orgatish metodikasi...... 240
Otasheva Oysanamxon Hamidulla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik ...... 245
Bekchanova Kuvanch Roximovna

Voleybolchilarni tayyorlashda differensial vositalaridan foydalanishning zarurligini, ularning o'yin ampluasini hisobga olgan holda aniqlash usullari ...... 249
Kambarov Kozimjon Ibragimovich

2-toifa diabet bilan bog'liq stressga qarshi kurashish strategiyalari va psixologik holatlar ...... 254
Sadikova Umida Botirovna

Boshlang'ich ta'limda vizual va multimediaviy texnologiyalarning pedagogik-psixologik ahamiyati...... 258
Raximova Faridabonu Alisher qizi

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida VARK modeli asosida multimodal o'qitishni tashkil etish (OAK talablariga mos maqola)...... 261
Raximova Mushtariy Alisher qizi

Raqamli ta'lim muhitida veb-texnologiyalar asosidagi platformalarning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va optimallashtirish ...... 264
Zoxidov Jahongir Botirxonovich

Eshitishida nuqsoni bo'lgan koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini umumta'lim jarayonida ona tili darslarida rivojlantirish metodikasi...... 272
Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi

Bo'lajak surdopedagoglarni mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy malakani shakllantirishning samarali metodlari ...... 276
Teshabayeva Oygul Fazliddinovna

Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasiga o'ziga ishonch va o'z-o'zini qadrlashning ta'siri...... 280
M. R. Sultonova

Shifoxonalarda tashkil etilgan maktablarda bemor o'quvchilar bilan faoliyat olib boruvchi pedagoglarga qo'yiladigan talablar ...... 284
Umarova Saboxon Minavvarovna, Abdusattorova Gulxumor

Chet til ta'limida mustaqil ishni tashkil etish masalalariga doir ..... 287
Erkayev Elmirza Temirovich

10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish metodikasi..... 294
Ishmuratov Hasanboy Karimjonovich

Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining samaradorligini oshirish usullari ..... 298
Yaqubov Arslon Maxmudovich

Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va uning o'rganilishi ..... 301
Dinora Eshboyeva Alisher qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish. Axloqning kelib chiqishi va asoslanish masalasini nazariy tahlil qilish ..... 306
Shaxayev Bauirjan Seytgaliyevich

Maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llashda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ..... 310
Ahmedova Zuhraxon Mamurovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi va zaruriyati ..... 314
Mirzabayeva Zebo Umarovna

Elektrolitlarda elektr toki mavzusini o'qitishda noto'g'ri tasavvurlar va ularni bartaraf etish metodikasi ..... 317
Xoliqov Qurbonboy To'ychiyevich

Mediata'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya faoliyatini takomillashtirish . 323
Ibodullaeva Dildora Shukrulla qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda montessori metodikasining uyg'unligi ..... 327
Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi, Xaydarova Shaxlo Narzullayevna

XIV asr oxiri va XV asr boshlari turkiy tillar taraqqiyotini o'rganishda "Kitob ul-Bulg'at" asarining lingvistik tadqiqi ..... 332
Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi

Informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish..... 336
Nabiyev Feruz Abdumannonovich

STEAM loyihalari asosida maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish..... 341
Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich

Psixolog talabalarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish ..... 345
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna

Raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish (texnologiya fanini o'qitish misolida)..... 348
Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna

O'zbek tili – faxrim, g'ururim ..... 351
H. Shukurova, M.Jumanazarova

Zamonaviy dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni..... 355
M. Kuzibayeva

Talabalarni ta'lim jarayonida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish..... 358
Mastonov Jahongir Mamatqul o'g'li

Raqamli maktabda yashil o'quv dasturi: kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari bilan integratsiyaning pedagogik modeli..... 362
Maxmudov Abdiqodir Yusupovich

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik empatiyani shakllantirish pedagogik muammo sifatida..... 367
Orinbaeva Jarqinay Djuginis qizi

Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations ..... 371
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova

Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muammolari ........ 377
Sh. A. Xujakulov, T. B. Kadirov

Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning matematik savodxonligini oshirishda fanlararo bog'lanishning roli........ 383
Tursunova Dildora Ziyadullayevna, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li

Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning "Maorif" asarida bilish etikasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya ..... 387
Tursunova Nilufar Samiyevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari ........ 393
Tursunova Saida Isakovna

Yosh avlodni tarbiyalashda hamkorlik tarbiya texnologiyasining o'rni ........ 396
Pirliyeva Gulmira Botir qizi

Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o'quv majmuallardan foydalanish muammolari va rivojlanish istiqbollari........ 400
Nabiyev Feruz Abdumannonovich, Mamanazarov Baxrom Jumonovich

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatda bilish jarayonlarini rivojlantirish........ 405
Sadirova Kamola Giyozovna

Kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati........ 409
O'razboyeva Adiba Abdug'ani qizi

Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlari. 413
Xalmuxamedov Bobir Taxirovich

О развитии учебно-познавательной деятельности студентов ........ 418
М. Халикова

Психологические механизмы искажения истины в процессе социализации: нормативно-когнитивная модель и смешанное эмпирическое исследование ........ 421
С. Ю. Нишанов

Методы повышения речевой активности студентов в процессе обучения иностранному языку........ 425
Утешова Зернегүл Хүрметуллаевна

Prenatal va erta chaqaloqlik rivojlanishi va rivojlanishning biologik asoslari ........ 429
N. Mirbabayeva

O'smir shaxsining rivojlanishi ........ 433
Matyakubova Shohista Odamboy qizi

O'zbekistonning ma'naviy va madaniy hayotida jadidlarning tutgan o'rni ........ 435
N. M. Qodirova

Development of Physical Qualities Through the Use of Special Physical Exercises With Student Participation........ 439
Rikhsiev Dilshod Shavkatovich

Tabiiy fan darslarida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati ........ 442
Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi

Special Physical Exercises in Coxarthrosis During the Preoperative and Postoperative Periods of Rehabilitation........ 446
Valiev Farrukh Nigmatjonovich

Роль цифровых технологий и дидактических принципов в учебных практик........ 449
Байметов М. М.

# INFORMATIKA TA'LIMIDA INTERFAOL O'QUV MAJMUALARI ASOSIDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNING BILIM VA KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Nabiyev Feruz Abdumannonovich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni qo'llashning pedagogik asoslari va amaliy imkoniyatlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Interfaol o'quv majmualarning mazmuniy, faoliyatga yo'naltirilgan hamda diagnostik komponentlari doirasida gamifikatsiya elementlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarning bilim darajasi, kognitiv faolligi va kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada o'yinli texnologiyalarning informatika fanida qo'llanish mexanizmlari, o'quv motivatsiyasini oshirish usullari hamda metodik tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol o'quv majmua, gamifikatsiya, informatika ta'limi, raqamli-didaktik model, kompetensiyaviy yondashuv, adaptiv topshiriqlar, o'quv motivatsiyasi.

**Abstract:** This article scientifically examines the pedagogical foundations and practical possibilities of applying gamification technologies based on interactive learning complexes in informatics education. The study analyzes the development of students' knowledge levels, cognitive engagement, and competencies through the integration of gamification elements into the content-related, activity-oriented, and diagnostic components of interactive learning systems. In addition, the mechanisms for implementing game-based technologies in informatics instruction, methods for enhancing learning motivation, and methodological recommendations are presented.

**Key words:** interactive learning complex, gamification, informatics education, digital-didactic model, competency-based approach, adaptive tasks, learning motivation.

**Аннотация:** В статье научно обоснованы педагогические основы и практические возможности применения игровых технологий на основе интерактивных учебных комплексов в обучении информатике. Проанализированы вопросы развития уровня знаний, когнитивной активности и компетенций обучающихся посредством интеграции элементов геймификации в содержательные, деятельностно-ориентированные и диагностические компоненты интерактивных учебных комплексов. Также рассмотрены механизмы применения игровых технологий в преподавании информатики, способы повышения учебной мотивации и представлены методические рекомендации.

**Ключевые слова:** интерактивный учебный комплекс, геймификация, обучение информатике, цифрово-дидактическая модель, компетентностный подход, адаптивные задания, учебная мотивация.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida shakllanayotgan raqamli muhit bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Ayniqsa, informatika fanini o'qitishda interfaol o'quv majmualaridan foydalanish o'quv jarayonini tizimli, vizual hamda faoliyatga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini bermoqda. Interfaol o'quv majmualar tarkibida o'yinli texnologiyalarni integratsiyalash o'quvchilarning dars jarayoniga faol jalb etilishiga, ularning bilimlari va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi [2].

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiya elementlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarda motivatsiya, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivoj-

lantiradi. Shu nuqtayi nazardan, informatika ta'limida interfaol o'quv majmualarini o'yinli texnologiyalar bilan boyitish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot – mamlakatning barqaror rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishi" to'g'risidagi Farmoni hamda 2020-yil 20-apreldagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va keng joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori ta'lim sohasida innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatlar interfaol o'quv majmualarini, raqamli ta'lim resurslarini hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish zaruratini belgilab beradi [1].

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-yanvardagi "Maktab ta'limi sifatini oshirishga qaratilgan raqamli ta'lim resurslarini yaratish va joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ta'lim jarayonida interfaol va o'yinli texnologiyalarni keng qo'llashni rag'batlantiradi. Mazkur hujjat informatika fanida interfaol o'quv majmualar asosida o'yinli texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [3].

Bugungi kunda interfaol o'quv majmualar muhitida o'yinli texnologiyalarni qo'llash nafaqat zamonaviy talab, balki kompetensiyaviy ta'lim modelini amalga oshirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

### Interfaol o'quv majmualar va ularning didaktik imkoniyatlari

Interfaol o'quv majmualar – mazmuniy, faoliyatga yo'naltirilgan hamda diagnostik komponentlarni o'zida mujassamlashtirgan kompleks raqamli-didaktik tizim hisoblanadi. Ular informatika fanida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, algoritmik tafakkurni rivojlantirish hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi [4].

Interfaol o'quv majmualar tarkibida quyidagi elementlar mavjud bo'lishi mumkin:

- elektron modul va raqamli darsliklar (matn, video, animatsiya hamda kod namunalarini o'z ichiga oladi);
- simulyatsion muhit (algoritm va dasturiy jarayonlarni vizual modellashtirish imkonini beradi);
- interfaol test va diagnostik tizimlar (bilim va ko'nikmalarni baholash uchun);
- gamifikatsiya elementlari (ball, reyting, badge (belgilar), darajalar, topshiriqlar orqali o'quv motivatsiyasini oshirish);
- adaptiv boshqaruv mexanizmi (o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish).

Ayniqsa, o'yinli texnologiyalar interfaol majmua tarkibida qo'llanganda o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish, ularning e'tiborini saqlash va faol ishtirokini ta'minlash imkonini beradi. Natijada bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tabiiy va motivatsion muhitda amalga oshadi(1-rasm).




1-rasm: **Interfaol majmua tarkibida diagrammasi**

Interfaol o'quv majmualar muhitida o'yinli texnologiyalarni qo'llash. Interfaol o'quv majmualar tarkibida o'yinli texnologiyalarni qo'llash informatika ta'limida o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish va kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Gamifikatsiya elementlari interfaol majmuaning faoliyat moduli va diagnostik komponenti bilan integratsiyalashgan holda o'quv jarayonini motivatsion hamda raqobatbardosh muhitga aylantiradi.

O'yin mexanizmlari – mukofotlash (ball, reyting, badge), raqobat elementi, darajalar tizimi hamda qiyinchilik darajasini bosqichma-bosqich oshirish – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, informatika fanida algoritmik tafakkurni shakllantirish jarayonida o'yinli topshiriqlar yuqori samaradorlikka ega.

Interfaol o'quv majmualar tarkibida qo'llaniladigan o'yinli texnologiyalar quyidagi turlarga ajratilishi mumkin [5]:

- didaktik o'yinlar (mavzuni mustahkamlashga qaratilgan interfaol topshiriqlar: algoritmik mantiqiy vazifalar, kodni to'g'ri joylashtirish, blokli dasturlash mashqlari);
- raqamli o'yinlar (kompyuter va mobil muhitda ishlovchi, topshiriq bajarishga asoslangan interaktiv dasturlar);
- simulyatsion o'yinlar (real dasturiy jarayonlar yoki virtual modellarni taqlid qiluvchi muhit);
- viktorina va test o'yinlari (tezkor baholash va refleksiv tahlilni amalga oshiruvchi gamifikatsiyalashgan diagnostik vositalar).

Mazkur yondashuv interfaol o'quv majmualarning mazmuniy va faoliyat komponentlari bilan uyg'unlashganda, ta'lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki kompetensiyalarni shakllantirish jarayoniga aylanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Informatika ta'limida interfaol o'quv majmualaridan foydalanish masalasi pedagogik dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu yo'nalishda To'rayev B. va Karimov Sh. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik dasturiy vositalarning ta'lim jarayonini individuallashtirish, vizuallashtirish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishdagi ahamiyati ilmiy asoslangan. Mualliflar interfaol resurslar o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va fanlararo integratsiyani ta'minlashda muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Mamanazarov B.J. esa o'quv mashg'ulotlarida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning metodik asoslarini yoritib, ularning samaradorligi o'qitish mazmuni va topshiriqlar tuzilmasiga bevosita bog'liqligini ko'rsatib bergan.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi alohida e'tibor markazida turadi. C. Redecker tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini baholash va rivojlantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu modelda raqamli texnologiyalar, jumladan interfaol o'quv majmualar va o'yinli elementlardan foydalanish o'quvchilarning faolligi va kompetensiyalarini oshirish vositasi sifatida talqin etilgan. OECD tomonidan e'lon qilingan raqamli ta'lim istiqbollari haqidagi tadqiqotlarda ham raqamli muhitda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol va adaptiv texnologiyalarning o'rni alohida qayd etilgan.

Gamifikatsiya masalasi ta'lim jarayonida motivatsiyani oshirish va samaradorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishi sifatida qaraladi. K.M. Kapp o'yinli metodlar va strategiyalarni ta'limga tatbiq etish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni yanada samarali tashkil etilishini ilmiy asoslab bergan. S. Deterding va hammualliflar gamifikatsiyani o'yin dizayni elementlarini o'yin bo'lmagan kontekstda qo'llash sifatida talqin etib, uning kognitiv va motivatsion ta'sirini ochib bergan. Shuningdek, Means B. va boshqalar tomonidan olib borilgan meta-tahlil natijalari onlayn va aralash ta'lim shakllarida interfaol hamda o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan empirik va nazariy usullardan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, diagnostik testlar hamda o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi baholash vositalari orqali to'plandi. Tajriba jarayonida an'anaviy o'qitish usullari bilan interfaol o'quv majmualar va o'yinli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar natijalari taqqoslandi. Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilinib, statistik taqqoslash, foiz ko'rsatkichlari hamda dinamik o'zgarishlar asosida umumlashtirildi. Shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasi va kognitiv faolligidagi o'zgarishlar tahlil qilinib, tadqiqot natijalari asosida xulosalar chiqarildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda interfaol o'quv majmualar tarkibida o'yinli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha olib borilgan tajribalar ularning samaradorligini ko'rsatmoqda. Xususan, informatika fanini o'qitishda interfaol topshiriqlar, adaptiv o'yinli testlar hamda simulyatsion modullardan foydalanish o'quvchilarning bilim darajasi va darsga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirgan (1-jadval).

1-jadval: **2024-yilda o'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko'ra quyidagi ko'rsatkichlar aniqlangan:**

| O'quv usuli | O'quvchilarning o'rtacha bilim darajasi (%) |
|---|---|
| An'anaviy darslar | 68 |
| Interfaol o'quv majmua + o'yinli texnologiyalar | 90 |

Interfaol o'quv majmualarda o'yinli texnologiyalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri 2-rasmda keltirib o'tilgan. Mazkur natijalar interfaol o'quv majmualar tarkibida o'yinli texnologiyalarni qo'llash bilimlarni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi. Ayniqsa, adaptiv va bosqichma-bosqich murakkablashuvchi topshiriqlar o'quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Interfaol o'quv majmualar muhitida gamifikatsiya elementlarini integratsiyalash informatika ta'limining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim pedagogik omili hisoblanadi [7](2-rasm).




2-rasm: **Bilim darajasi taqqoslash diagrammasi**

Interfaol o'quv majmualar muhitida "Kahoot!", "Quizizz" kabi platformalar integratsiyalashgan holda qo'llanilganda, gamifikatsiyalashgan diagnostik modul sifatida samarali ishlaydi. Mazkur platformalar orqali o'tkaziladigan viktorinalar o'quvchilarning mavzu bo'yicha bilimlarini tezkor baholash, xatoliklarni aniqlash hamda refleksiv tahlil qilish imkonini beradi. Real vaqt rejimida natijalarni aks ettirish o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi va ularning faolligini oshiradi. Informatika fanida bunday yondashuv, ayniqsa, algoritmik fikrlashni rivojlantirish, tezkor mantiqiy qaror qabul qilish va amaliy topshiriqlarni bajarishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi [9].

**Afzalliklar va pedagogik natijalar.** Interfaol o'quv majmualar tarkibida o'yinli texnologiyalarni qo'llash bir qator pedagogik ustunliklarga ega bo'lib, ular kompetensiyaviy ta'lim modelini amalga oshirishga xizmat qiladi:

- motivatsiyaning oshishi – gamifikatsiya elementlari o'quvchilarning informatika faniga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va ichki motivatsiyani shakllantiradi;
- interaktivlik va kognitiv faollik – o'quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida faol ishtirok etib, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi;
- individual yondashuv va adaptiv boshqaruv – interfaol majmua o'quvchining o'zlashtirish darajasiga qarab murakkablik bosqichlarini moslashtirish imkonini beradi;
- bilimlarning barqaror mustahkamlanishi – o'yin shaklida takrorlash va mustahkamlash jarayoni uzoq muddatli xotirani faollashtiradi;
- ijodkorlik va muammoli fikrlash rivoji – simulyatsion va loyiha asosidagi o'yinli topshiriqlar o'quvchilarda kreativ yondashuvni shakllantiradi;
- raqamli kompetensiyalarning rivoji – zamonaviy platformalar bilan ishlash orqali o'quvchilarning kompyuter savodxonligi va axborot madaniyati oshadi.

Interfaol o'quv majmualar tarkibida o'yinli texnologiyalarni integratsiyalash informatika ta'limida nafaqat bilimlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshiradi, balki o'quvchilarning raqamli, kognitiv va kommunikativ kompetensiyalarini kompleks shakllantirishga xizmat qiladi [10](3-rasm).




3-rasm: **Multimediyali interfaol majmualar va o'yinli texnologiyalar natijalari**

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, informatika ta'limida interfaol o'quv majmualar tarkibida o'yinli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning bilim darajasi, kognitiv faolligi va kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Gamifikatsiya elementlari interfaol o'quv majmuaning mazmuniy, faoliyatga yo'naltirilgan hamda diagnostik komponentlari bilan integratsiyalashgan holda o'quv jarayonini motivatsion va adaptiv muhitga aylantiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'yinli topshiriqlar, real vaqt rejimidagi baholash tizimlari hamda adaptiv boshqaruv mexanizmlari o'quvchilarning informatika faniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, algoritmik tafakkurini rivojlantiradi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, interfaol platformalar yordamida tashkil etilgan viktorina va simulyatsion mashg'ulotlar bilimlarni mustahkamlash hamda tezkor refleksiya jarayonini ta'minlaydi.

Shuningdek, interfaol o'quv majmualar muhitida o'yinli texnologiyalarni qo'llash individual yondashuvni ta'minlash, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish hamda kompetensiyaviy natijalarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonini faqat nazorat qilish vositasidan rivojlantiruvchi pedagogik tizimga aylantiradi.

Umuman olganda, interfaol o'quv majmualar asosida gamifikatsiya elementlarini integratsiyalash informatika ta'limining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning raqamli va kognitiv kompetensiyalarini kompleks shakllantirish hamda ta'lim sifatini modernizatsiya qilishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kelgusida mazkur yondashuvni adaptiv hamda sun'iy intellekt elementlari bilan boyitish ta'lim jarayonining yanada individuallashtirilgan va samarali modelini shakllantirish imkonini beradi [6].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. To'rayev B., Karimov Sh. Pedagogik dasturiy vositalar va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Mamanazarov B.J. O'quv mashg'ulotlarida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning metodik asoslari. – Samarqand, 2022.
3. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
4. Kapp K.M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. – San Francisco: Pfeiffer, 2012.
5. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From game design elements to gamefulness: Defining gamification. – Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference, 2011.
6. OECD. Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. – Paris: OECD Publishing, 2021.
7. Means B., Toyama Y., Murphy R., Baki M. The effectiveness of online and blended learning: A meta-analysis of the empirical literature. – Teachers College Record, 2013.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №2(2)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.